



XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINING AHAMIYATI

Usmonova Feruzaxon Raxmonali qizi

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Magistratura (ingliz tili)

ferouzakhonousmonova27@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14762024>

Annotatsiya: ushbu maqola ta’lim tizimini rivojlantirishda, mamlakatimizda olib borilayotgan innovatsion jarayonlar va xalqaro baholashning umumiy rivojlanish imkoniyatlari, ularni amalga oshirishda oliy ta’lim va boshlang‘ich ta’lim tizimida olib borilayotgan ishlar. Mamlakatimiz Prezidentining Farmoniga binoan oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanganligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: yondashuv, ijod, texnologiya, kompetensiya, xalqaro tadqiqot, intellektual, boshlang‘ich sinf, hamkor, so‘rovnoma, axborot resurslari, mustaqil ta’lim, uzluksiz ta’lim, pedagogik texnologiya, muammoli vaziyat

PISA- xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi (inglizcha: Programme for International Student assessment) — turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur. PISA testlari maktab o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta’lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Har uch yilda bir marotaba o‘tkaziladigan ushbu dasturning har tendensiyasida bitta fan yo‘nalishiga afzallik berilib, jami testlar majmuasining deyarli 50% shu fanga mansub bo‘ladi. 2000-yilda ilk bor o‘tkazilgan PISA taqiqotida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligiga urg‘u berilgan. Test Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikda, milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi.

Tadqiqotda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a‘zo bo‘lgan davlatlar, shuningdek, OECD bilan hamkorlik aloqalari bo‘lgan davlatlar ishtirok etadi. PISA tadqiqoti monitoring tadqiqoti bo‘lib, u turli mamlakatlardagi ta’lim tizimlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniqlash va solishtirish, ta’lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi. 2000-2015-yillar oralig‘ida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari bo‘yicha bugungi kunda Sharqiy osiyoda — Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada — Finlandiya, Estoniya, Shveysariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o‘rta ta’lim tizimi yaxshi rivojlangan.

PISA testlari 5 ta yo‘nalish bo‘yicha o‘qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik darajasini sinovdan o‘tkazishga qaratilgan bo‘lib, testlarda asosiy e‘tibor o‘quvchilarning mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi.

PISA sinovlarida to‘rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

1. Bir javobli testlar;
2. Bir nechta javobli testlar;
3. Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;
4. Biror muammoning yechimi bo‘yicha o‘quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo‘ladi, o‘quvchi javobi test tuzuvchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o‘quvchi ijodkorligi qo‘llab quvvatlanadi).

Bundan tashqari testlar bilan bir vaqtda o‘quvchilardan so‘rovnomalar ham olish nazarda tutilgan.

PISA xalqaro baholash dasturidagi asosiy yo‘nalishlar

O‘qish savodxonligi: Insonning matn shaklida berilgan ma’lumotlarni tushuna olish va ularga reaksiya bera olish ko‘nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o‘qigan ma’lumotlaridan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati.



Bu yerda, o'qish savodxonligi tushunchasi keng ma'no kasb etadi. Bu yo'nalish maqsadi o'quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo'llanmalar, geografik kartalar kabi rang-barang mavzudagi, tarkibida matnni ochib berishgamo'ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnlarni tushunishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o'qiganlari haqida o'z fikrini bayon qila olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi.

Matematik savodxonlik: Insonning matematikaning o'zi yashayotgan olamdagi o'rnini bilishi, matematik jarayonlarni to'g'ri va to'liq asoslay olishini tekshiradi. Shaxsning matematikadan yaratuvchan, qiziquvchan va fikrlovchi insonning hozirgi va kelajakdagi matematik bilimlarga bo'lgan ehtiyojini qondira oladigan darajada foydalana olishini ta'minlash bu bo'limning asosiy maqsadidir.

Bu bo'limdagi savodxonlik terminidan bu bo'lim maqsadi odatda maktab dasturida beriladigan bilimlarni qay darajada o'zlashtirganini aniqlash emasligini ko'rsatish uchun foydalanilgan. asosiy e'tibor matematik bilimlardan turli xil hayotiy vaziyatlarda fikrlash va intuiativ qaror qabul qilish talab qilinadigan turli uslublaridan qo'llagan holda foydalana olish nazarda tutiladi. Lekin bu turdagi savollarga javob berishda maktab dasturida beriladigan bilim va ko'nikmalar zarur bo'lishi mumkin.

Bu yo'nalish sinovlarida odatda hayotning turli sohalarida (tibbiyot, turar joy, sport va hokazo) duch kelinishi mumkin bo'lgan matematikaga oid vaziyatlar taklif qilinadi.

Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi: Hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida

xulosalar chiqarish kompetensiyasi. Bu xulosalar atrofimizdagi olamni tushunish va inson faoliyati natijasida unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglab yetish, shunga ko'ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantirish bu bo'limning asosiy maqsadidir.

Bu savodxonlik asosi bizning maktablarimizda fizika (astronomiya elementlari bilan birga), biologiya, kimyo va geografiya fanlari o'qitilish jarayonida berilishi ko'zda tutilgan. o'qish savodxonligini tadqiq etishda ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEa) PIRLS tadqiqoti (Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti) mazkur assotsiatsiyaning 1991-yildagi o'qish savodxonligini tadqiq etish dasturiga qo'shimcha holda 2001-yildan joriy etila boshlandi. Har besh yilda o'tkaziladigan ushbu xalqaro tadqiqot bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. odatda, ushbu rivojlanish davrida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi. PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEa) o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash tadqiqotiga (Trends in International Mathematics and Science Study-TIMSS) qo'shimcha tarzda ishlab chiqilgan. O'qish savodxonligining rivojlanishi har bir o'quvchining o'sib-ulg'ayishi, ta'lim olishi va kundalik hayotida muhim ahamiyat kasb etgani bois, o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEa) 60 yildan oshiq vaqt mobaynida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini muntazam ravishda xalqaro miqyosda baholab, ularning o'qib o'rganishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga harakat qilmoqda. Ushbu assotsiatsiya (IEa) turli ta'lim tizimiga ega ishtirokchi mamlakatlarda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada teran tushunish maqsadida 1960- yillarda ta'lim sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni xalqaro miqyosda qiyosiy tahlil qiluvchi hukumat agentliklari va milliy tadqiqot institutlaridan tashkil topgan mustaqil xalqaro tashkilot hisoblanadi. Har bir PIRLS baholash tadqiqoti ota- onalar yoki vasiylar, maktablar, o'qituvchilar, mamlakatlar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan qator so'rovnomalar hamda o'quvchilarning o'qib o'zlashtirish ko'nikmalarini baholashdagi o'zgarishlarni zamonaviy tarzda tahlil qiladigan ayni shu an'anani davom ettiradi. o'quvchilarning o'qishni o'rganish va ta'lim olishdagi imkoniyatlari haqidagi so'rovnoma ma'lumotlari erishilgan natijalarni talqin qilish uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

O'qish savodxonligi bo'yicha tashkil etilgan ushbu xalqaro dastur o'quvchilarning o'qib tushunishlaridan ko'zlangan ikki asosiy maqsad, badiiy tajriba orttirish va axborotni olish va undan



foydalanish, hamda to'rtta tushunish jarayonidan (topish, xulosalar chiqarish, uyg'unlashtirish va baholash) kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash uchun xizmat qiladi.

Boshlang'ich 4-sinf o'quvchilari o'qish savodxonligini aniqlashga qaratilgan topshiriq va savollarni yechish bilan birga ta'lim olishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'yicha so'rovnomalarda ishtirok etadilar. So'rovnomalari aniqlanishi lozim bo'lgan soha qamroviga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

PIRLS ishtirokchilari uchun so'rovnoma o'quvchilar, ularning oilasi va o'qiyotgan maktabi haqida ma'lumot to'plash uchun mo'ljallangan bo'lib, so'rovnomada o'quvchilar quyidagi savollarga javob beradilar:

- uylarida bor kitoblar soni haqida;
- ularning oilasi uchun mavjud resurslar haqida;
- kompyuterdan foydalanish haqida;
- maktabda va maktabdan tashqari o'qishlari haqida;
- kutubxonadan foydalanish haqida;
- o'qishga bo'lgan munosabat haqida;
- o'qish bilan bog'liq holda bolaning o'zini-o'zi baholashi haqida;

Ota-onalar uchun so'rovnoma - farzand kamolotida eng muhim rolda bo'lgan ota-onalar PIRLS so'rovnomalari farzandining bilim olishi va ongli o'qish savodxonligining shakllanishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar bo'yicha savollarga javob beradilar. Bunda asosan:

- bola maktabga chiqqunga qadar mashg'ulotlar;
 - bolaning bolalar bog'chasiga jalb qilinganligi;-maktabga tayyorgarlik;
 - farzandining uy vazifasi haqida;
 - bola o'qiydigan maktab haqida;
 - kitobxonlikning oiladagi o'rni haqida;
- Shuningdek bir qator boshqa savollar:
- ota-onalarning o'zlari haqida;
 - ota-onalarning kasbiy faoliyati haqida ma'lumotlar o'rganiladi.

Maktab ma'muriyati uchun so'rovnoma - o'quvchi-yoshlarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda, ulardagi mavjud qobiliyatlarni aniqlash hamda yanada rivojlantirishda maktab ma'muriyati

- maktab hususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- maktab resurslari haqida;
- ota-onalarning maktab tadbiriga ishtirok etishi to'g'risida;
- maktabdagi atmosfera haqida;
- o'qituvchilar haqida;
- ma'muriyat faoliyati to'g'risida;
- maktabda o'qishga o'rgatish hususiyatlari haqidagi ma'lumotlarga ko'ra so'rovnomada ishtirok etadilar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun so'rovnoma - bugun ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni amaliyotga joriy etuvchi kuch sifatida boshlang'ich sinf o'qituvchilari PIRLS so'rovnomalari ishtirok etib, quyidagilar haqida faktlarga tayangan holda fikr bildiradilar:

- o'qituvchilarning demografik xususiyatlari haqida;
- o'qituvchilar dars beradigan maktablarning xususiyatlari haqida;
- umumiy o'qituvchilar faoliyatining ayrim jihatlari, sinovdan o'tgan sinfdagi faollar;
- sinovdan o'tgan sinfdagi o'qish va ona tili darslarining o'qitilishi;
- ushbu fanlarni o'qitish uchun ajratilgan vaqt;-o'quvchilar bilan ishlashning tashkiliy shakllari;
- kadrlar tayyorlashda foydalaniladigan darsliklar;
- ishlatiladigan o'quv qurollari;
- har xil turdagi matnlar bilan ishlash;
- darslarda kompyuterdan foydalanish;



- darslarda sinf kutubxonasidagi kitoblardan foydalanish;
- uyga vazifa va baholash turlari;
- o'qishdagi akademik yutuqlar;
- o'qishni o'rgatish bilan bog'liq holda kasbiy rivojlanish.

O'tgan 20 yil mobaynida o'quvchilarning o'qib tushunish darajalarini baholovchi PIRLS tadqiqoti o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini o'zlashtirishga imkon beruvchi muhitlarga oid PIRLS so'rovnoma ma'lumotlari bilan umumlashtirilishi tadqiqotchilarga dunyo bo'ylab o'quvchilarning o'qish savodxonligini takomillashtirish borasida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini bermoqda.

Bugun rivojlangan mamlakatlar orasida ta'lim sohasida yuqori marralarni zabt etayotgan davlatlar ta'lim tizimiga nazar solsak, bu davlatlarda boshlang'ich ta'limga hamda bolalarning erta savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishga katta e'tibor qaratilayotganini ko'ramiz. Buning boisi yoshlarning kelajakda ilm olishga intiluvchan, salohiyatli, jamiyatda o'z o'rniga ega kadr bo'lib kamol topishida va Vatan ravnaqiga munosib hissa qo'shishida erta savodxonlikning ahamiyati muhim. Bola maktabga qadam qo'ygunga qadar savodxonlik ko'nikmalarini egallashi uning faqatgina umumta'lim maktablarida a'lo baholarga o'qishini taminlabgina qolmasdan, balki o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichlarida ham tahsil olishiga va chuqur bilim egallashlariga turtki berishi isbotlandi.

Butun dunyo bo'ylab o'qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o'qishlari bilan bevosita bog'liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish, hordiq chiqarish va shaxsiy qiziqish va izlanish uchun o'qishni yoki ta'lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ko'pgina yosh o'quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to'plamlari yoki rasmlar kitoblari) yoki o'quvchilarga atrofidagi dunyo haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat bo'ladi. Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bo'lishni asosiy maqsad qilib olgan.

O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda

qo'llay olish qobiliyatidir. O'qish savodxonligi hamda mustaqil mushohada yuritish inson hayoti va faoliyatida muhim omil ekanligini Roziy abu Bakr Muhammad ibn Zakariyning «Kitob tib ar-Ruhoniyy» asarida ham uchratish mumkin. U mustaqil fikrlay olish qobiliyati va uning hayotiy mohiyati xususida shunday deb yozadi: «Nafaqat o'qish, balki o'qiganini muhokama qila olish, o'qiganini ba'zi hollarda tatbiq qila olish qobiliyatiga tabibni tabib qiladi».

Ushbu nuqtayi nazar o'quvchilarning o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan

talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. O'quvchilar matnni o'qib, uning mazmunini shakllantirar ekan, ular aniq bayon etilmagan mulohaza yoki ma'lumotlar haqida mulohaza yuritadi. Mulohaza yuritish o'quvchilarga matn chegarasidan chetga chiqishga va odatda matndan anglashilgan ma'nodagi bo'shliqlarni to'ldirishga yordam beradi.

Bunda ayrim mulohazalar xususiyatiga ko'ra aniq va tushunarli bo'ladi, chunki ular asosan matnning ma'lum qismida berilgan ma'lumotga asoslangan bo'ladi.

Bunda, o'quvchidan ikki yoki undan ortiq mulohaza yoki ma'lumotlarni bir-biriga bog'lash va fikr yuritish talab etiladi. Mulohazalar aniq bayon etilishi mumkin, ammo ular orasidagi bog'lanish aniq bo'lmaydi, shuning uchun ularni anglab olish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "o'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. o'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun) . Toshkent. "Sharq" nashriyot-matbaa konserni. 1999-yil, 1-maxsus son.
3. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
4. A.G'ulomov, M.Qodirov "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Universitet" nashriyoti. 2001-yil.
5. 5.Qudratova, S. (2024). Problematic education, which is one of the foundations of the STEAM approach in education. Modern Science and Research, 3(1), 1-6.
6. 6. "Yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'lim: kecha, bugun va ertaga" mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjuman. 155-162- betlar
7. 7.Рождественская Л. STEM - STEAM - STREAM на смену предметам и предметникам.../ Л. Рождественская. – Новатор. – URL: <https://novator.team/post/142> (дата обращения: 12.08.2022)
8. 8.Qudratova S., To'rabekova D. (2023). THE ROLE OF STEAM EDUCATION IN THE FORMATION OF THE FUTURE TEACHER'S PERSONALITY. Modern Science and Research, 2(9) 40-44.